

OLIMPIZM G'OTALARI TARG'IBOTI-O'QUVCHI YOSHLAR VA OILADA SOG'LOM MUHIT TARZINI SHAKLLANTIRUVCHI HODISALAR

Evatov Saminjon Sobirovich

FarDU Tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10054095>

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach sport sohasiga alohida e'tibor qaratilib, bu sohada tub o'zgarishlar ro'y bermoqda, nafaqat ta'lim muassasalarida, balki oilada, mahallalarda ham bu sohaga jiddiy yondashilmoqda. Buning zamirida esa sog'lom muhit va eng asosiysi sog'lom avlod tarbiyasi yotadi. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllanti-radi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talabini anglaydi, his etadi. Oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari bolani ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabati mehribonligi, g'amxo'rliqi oiladagi farzandlar munosabatlarini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Bolani normal jismoniy rivojlanganligi – asosiy jismoniy sifatlar va harakatlanish qobiliyatla-rini talab darajasida namoyon bo'lishi, mahalliy iqlim va ekologik sharoitga moslasha olishi, milliy an'ana va madaniyat asosida axloqiy va nafosat tarbiyasi hayotda yuqori ishchanlikni ta'minlay oladigan salomatlikdir. Bolani oilada jismoniy jihatdan tarbiyalashda:

- ✓ bolani yoshiga mos jismoniy mashq bilan muntazam shug'ullanishi;
- ✓ ertalabki gigiyenik gimnastik mashqlar;
- ✓ dars tayyorlashdan oldingi gimnastika;
- ✓ jismoniy tarbiya fanidan uy vazifalarini bajarish;
- ✓ uyqudan olidingi sayr va ochiq havoda sayr qilish;
- ✓ dars orasida jismoniy tarbiya daqiqalari;
- ✓ dam olish kunlari sayoxatga chiqishlardan keng foydalanilsa albatta ijobiy samara beradi.

Mustaqil fikrga ega bo'lgan sog'lom avlodni, barkamol shaxsni tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlar hisoblangan olimpiya g'otalari muhim vosita hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport haqidagi bilimlarni insoniy fazilat bo'lgan ma'naviyatni shakllantirishda yoshlarda kichik yoshdan boshlab sportga qiziqish uyg'otish, mustaqil jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish davr talabidir. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida olimpiya g'otalaridan eng muhim mamlakat, oila tinchligi, xalqaro do'stlik, birodarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini yoshlarda tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish lozim. Olimpiya o'yinlari dunyo xalqlari o'rtasida o'tkaziladigan nufuzli sport bayrami bo'lib, millati, dini, irqi va siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar teng huquqli hisoblanadilar. Pedagogik amaliyot davrida Farg'ona shahar 4-umumta'lim maktabini 7-sinf o'quvchilari orasida og'zaki so'rov-anketa usulida tadqiqot o'tkazilganda o'quvchilar olimpiya o'yinlari haqida yetarli darajada bilim va tushunchaga ega emasliklari aniqlandi. Berilgan eng oddiy savol: - yozgi olimpiya o'yinlari necha yilda o'tkaziladi? – degan savolga 43 nafar o'quvchidan 28 tasi to'g'ri javob bergan, bu esa 65% tashkil etadi. Shuni aniqladikki, aksariyat ma'lumotlarni o'quvchilar televideniya orqali olishar ekan. Umum'talim maktablarida ham Olimpiya o'yinlari g'otalarini targ'ibot etilishiga ahamiyat berish lozim ekan degan xulosaga keldik. Bunda:

- ✓ jismoniy tarbiya darslarida ma'lumot berish;
- ✓ maktabda "Olimpiya shon-sharaf" burchagi tashkillash;
- ✓ o'quvchilar orasida "O'zbekistonlik olimpiya chempionlari" devoriy gazeta konkursarlari;

✓ olimpiya g'oyalari mavzusida turli kechalar uyushtirishlardan unumli foydalanish lozim. Mamlakatimiz o'quvchi yoshlari o'rtasida 2000 yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan uch bosqichli sport musoboqalari "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" bejiz kichik olimpiada deb tan olinmagan. Bunda Vatanimiz turli burchaklaridan o'quvchi-yoshlar ishtirok etib ko'plab sport yutuqlarini qo'lga kiritish bilan bir qatorda ko'plab do'stlar ortirmoqdalar. Yurtimizni e'tiborli va ziyoratgohlarida bo'lishib o'zlarini ma'naviyat-larini oshirmoqdalar eng muhimi ularni Vatanga muhabbati ortib, sog'liqlari mustahkamlanmoqdalar. Ular orasida kuchli sportchilar tanlab olinib O'zbekiston sharafini xalqaro arenalarda munosib himoya qilib, madhiyamizni baralla yangratib, bayrog'imini yuqori ko'tarmoqdalar. O'quvchi yoshlarni ommaviy sportga jalb qilish ayniqsa, biz sport murabbiylarini oldidagi bosh vazifalaridandir. Biror bir mamlakat yo'qki o'zini yorqin kelajagini jismonan va ma'nan yetuk avlod kamolida ko'rishni istamasa. Jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, barkamol shaxsda bizga yot bo'lgan g'oyalarga immunitet shakllanib, uni hech qanday oqim kuchi o'z ta'siriga og'dira olmaydi.

References:

1. Evatov, S. S. (2021). FORMATION OF STUDENTS COMMUNICATIVE COMPETENCE IN THE PROCESS OF CONTINUOUS EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 13-19.
2. Эватов, С. С., & Набиева, А. (2022). ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИ КРЕАТИВЛИГИ ВА КОМПЕТЕНЦИЯВИЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ ИСЛОХАТЛАРИ. *ТА'ЛИМ ВА INNOVATION TADQIQOTLAR*, 10-11.
3. Mashrabjonovich, O. J. "EFFECTIVE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM* 2.19 (2022): 123-127.
4. Muratovna O. Z. THEORETICAL FOUNDATIONS OF USING THE TRADITIONS OF FOLK PEDAGOGY IN EDUCATING THE YOUNG GENERATION IN THE NATIONAL SPIRIT // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*. – 2023. – Т. 11. – №. 10. – С. 74-77.
5. Oribjonovich, K. H. (2022). PEDAGOGICAL SKILL IN THE ACTIVITY OF A TEACHER IS A PRODUCT OF INDIVIDUAL CHARACTERISTICS. *International Journal of Pedagogics*, 2(12), 18-22.
6. Qodirov, X., & Abdullajonova, N. (2023). HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING INSONPARVARLIK HUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 560-563.
7. Qodirov , X., Norinov , M., & Ergashev , A. (2023). UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING INSONPARVARLASHUV XUSUSIYATLARI. *Research and Implementation*, 1(6), 45–50. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/991>
8. Абдулазизова, Н., & Эватов, С. (2014). КАСБ-ХУНАР КОЛЛЕЖИ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЗАРАРЛИ ОДАТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ОМИЛЛАРИ. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 25(4), 38-41.
9. Qodirov, X., Norinov , M., & Ergashev , A. (2023). O'ZBEK JADID MUTAFAKKIRI ABDULLA AVLONIYNING INSON VA TABIAT MUNOSABATLARI HAQIDAGI QARASHLARI. *Research and*

- Implementation*, 1(6), 40–44. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/990>
10. Qodirov, X. (2023). THE CLASSIFICATION OF INNOVATIVENESS ON THE LEVEL OF AN INDIVIDUAL AS PROPERTY OF THE PROFESSIONAL PEDAGOGICAL CULTURE. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 29(1), 8. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a8
11. Мухтаров, Ф. М., & Орибжонович, Қ. Х. (2023, April). Олий Таълимда Инновацион-Педагогик Фаолиятнинг Ижтимоий-Психологик Хусусиятлари. In *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses* (pp. 39-44).
12. O'ktamovich, B. I., Oribjonovich, Q. X., Najimidin o'g, N. M. R., & Abdugoffor o'gli, X. A. (2023, April). ОТМ Talabalarida Pedagogik Maxoratini Rivojlantirish Masalalari. In *Conference on Applied and Practical Sciences* (pp. 100-104).
13. Oribjonovich, Q. X., & Nabiyevna, Q. X. (2023, April). OLIY TALIM TALABALARIDA PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 7-11).
14. Oribjonovich, Q. X., & Nabiyevna, Q. X. (2023, April). TARBIYA FANI O 'QITUVCHISINING TASHKILOTCHILIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH BO 'YICHA SIRTQI TA'LIM TALABALARIDA DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH. In *International Congress on Models and methods in Modern Investigations* (pp. 1-6).
15. Oribjonovich, Q. X., & Najimidin o'g, N. M. R. (2023). INSON INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY KAMOLATI BOSQICHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(8), 39-43.
16. Oribjonovich, Q. X., & Najimidin o'g, N. M. R. (2023). FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA TOLERANTLIK MADANIYATINING O 'RNI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(8), 44-46.
17. Qodirov, X., & Abdullajonova, N. (2023). ЗНАЧЕНИЕ КООПЕРАТИВНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ФОРМИРОВАНИИ ХАРАКТЕРИСТИК ЧЕЛОВЕЧНОСТИ. *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 560-563.
18. Qodirov, X. (2023). ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОЯВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОСТИ НА УРОВНЕ ЛИЧНОСТИ КАК СЛЕДСТВИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ. *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 38-41.